

TA`LIM SIYOSATI

Sabirova Muxarram*Andijon davlat pedagogika instituti o`qituvchisi***To`ychiyeva Sanobar Erkinjon qizi****Odilova Umidaxon Alisher qizi***Andijon davlat pedagogika instituti Texnologik ta`lim 3-bosqich talabalari*

Annotatsiya: Bugun yangi O‘zbekiston jahon hamjamiyati safida o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Mamlakatdagi har bir soha zamonga xos va mos tarzda rivojlantirilib, har bir sohada yangilanish nafasi ufurmoqda. Keling uzoqqa bormay birgina ta’lim sohasidagi islohotlar haqida to‘xtalaylik. Sababi so’ngi yillarda yurtimizda maktab, o‘rta maxsus va oliy ta’lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish, davlat-xususiy sherikchilik va xususiy sektor resurslaridan keng foydalanish, aholining oliy ta’lim bilan qamrab olinishini rivojlangan davlatlar darajasiga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim tizimini yanada rivojlantirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi. Ushbu farmonga asosan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta’limni tizimli isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, zamonaviy bilim va yuksak ma’naviyaxloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko‘tarish, oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ilg‘or ta’lim texnologiyalariga asoslangan. Umuman olganda globallashuv davrida ta’lim-tarbiya jarayoni zamon kuyayotgan talablarga javob berishi, undan orqada kolmasligi muhim ahamiyatga ega. Bu mamlakatimizda belgilangan demokratik jamiyat qo’rish vazifalarini amalga oshirishda xal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ta’lim soxasidagi

yutuqlar taraqqiyotning kaliti bo'lsa, tarbiya soxasidagi o'ziga xoslik O'zbekistonni mustaqil taraqqiyot yo'lidan rivojlanishini kafolatlab beradi.

Kalit so`zlar: ta'lim siyosati, global chaqiriqlar, modernizatsiya, xorijiy davlatlarda oliy ata'lim, integratsion jarayonlar, pedagogning individual rivojlanish dasturi, ta'lim siyosati yo'nalishlari.

ПОЛИТИКА В ОБЛАСТИ ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация: Сегодня новый Узбекистан занимает свое место в мировом сообществе. Каждый сектор в стране развивается своевременно и надлежащим образом, и каждый сектор переживает дыхание обновления. Давайте не будем заходить слишком далеко и поговорим только о реформах в сфере образования. Это обусловлено тем, что в последние годы особое внимание уделяется созданию конкурентной среды в системах школьного, среднего специального и высшего образования нашей страны, развитию государственно-частного партнерства и широкому использованию ресурсов частного сектора, доведению охвата населения высшим образованием до уровня развитых стран. В целях дальнейшего развития системы образования Президент Республики Узбекистан подписал Указ «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года». Согласно данному указу, необходимо определить приоритетные направления системного реформирования высшего образования в Республике Узбекистан, поднять на качественно новый уровень процесс подготовки высококвалифицированных кадров, обладающих современными знаниями и высокими духовно-нравственными качествами, самостоятельным мышлением, модернизировать высшее образование на основе передовых образовательных технологий. В целом, в эпоху глобализации важно, чтобы образовательный процесс отвечал требованиям времени и не отставал. Это имеет решающее значение для реализации поставленных в нашей стране задач построения демократического общества. Если достижения в образовании являются залогом прогресса, то

的独特性在教育领域保证了乌兹别克斯坦沿着独立发展的道路前进。

Ключевые слова: образовательная политика, глобальные вызовы, модернизация, высшее образование в зарубежных странах, интеграционные процессы, индивидуальная программа повышения квалификации педагогов, направления образовательной политики.

EDUCATION POLICY

Abstract: Today, the new Uzbekistan is taking its place in the ranks of the world community. Each sector in the country is developing in a timely and appropriate manner, and each area is experiencing a breath of renewal. Let's not go too far and dwell only on the reforms in the education sector. The reason is that in recent years, special attention has been paid to the formation of a competitive environment in the school, secondary specialized and higher education systems in our country, the widespread use of public-private partnerships and private sector resources, and the increase in the coverage of the population with higher education to the level of developed countries. In order to further develop the education system, the President of the Republic of Uzbekistan signed a decree "On approval of the Concept for the Development of the Higher Education System of the Republic of Uzbekistan until 2030". According to this decree, it is necessary to determine the priority areas of systemic reform of higher education in the Republic of Uzbekistan, to raise the process of training highly qualified personnel with modern knowledge and high spiritual and moral qualities, independent thinking to a qualitatively new level, to modernize higher education, based on advanced educational technologies. In general, in the era of globalization, it is important that the educational process meets the requirements of the times and does not lag behind. This is of decisive importance in implementing the tasks of building a democratic society set in our country. If achievements in the field of education are the key to progress, then the uniqueness of the field of education guarantees the development of Uzbekistan along the path of independent development.

Keywords: educational policy, global challenges, modernization, higher education in foreign countries, integration processes, individual development program of a teacher, directions of educational policy.

KIRISH

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev o'zining "Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" asarida ta'lif va ilm-fan, davlatning yoshlarga doir siyosatini amalga oshirish, ta'limning yangi, zamonaviy usullarini, jumladan, axborot-kommunikasiya texnologiyalarini joriy etish sohasidagi ishlar axvoli tanqidiy tahlil qilib, bir qator vazifalarni amalga oshirishga e'tibor qaratdilar. Shu o'rinda hammamiz uchun ayni paytda juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan masala, ya'ni kitobxonlikni keng yoyish va yoshlarimizning kitobga bo'lgan muxabbatini, ularning ma'naviy immunitetini yanada oshirishga qaratilgan ishlarimizni yangi bosqichga olib chiqish vazifasi turibdi. O'tgan yillar davomida ta'lif tizimini isloh qilish jarayonida respublikamizda mustahkam huquqiy, tashkiliy, moddiy-texnik baza yaratildi, bu intellektual salohiyati yuqori va barkamol yosh avlodni o'qitish va tarbiyalashning mazmunini yangilashga ko'maklashdi. Mustaqillik yillarida respublikamizda ta'lif-tarbiya tizimi va barkamol avlodni tarbiyalash davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'naliishlari darajasiga ko'tarildi. Biroq, o'tkazilgan tahlillar ta'lif sohasida olib borilayotgan ishlarning samarasi va natijasi yetarli darajada emasligini ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, umumiyo'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi rivojlanishini tahlil qilish natijalari tizimning bugungi kun talablariga javob bermasligini va tub islohotlarga muhtojligini ko'rsatdi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Oliy ta'lif tizimida o'z yo'naliishlari bo'yicha dunyoning yetakchi ilmiy-ta'lif muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagog va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta'lif muassasalarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish borasidagi ishlar yetarli darajada olib borilmayapti. Tahlillarning ko'rsatishicha, oxirgi yillarda

o'qituvchilar, pedagoglar va tarbiyachilarning kattagina qismi yaxshi tayyorgarlik ko'rmaganligi, ularning bilim va kasb saviyasi pastligi jiddiy muammo bo'lib qolmoqda, malakali pedagog kadrlar yetishmasligi sezilmoqda. Ta'lif-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzlusiz ta'lif-tarbiya tizimini tashkil qilish muammolari hal qilingan emas. Mutaxassislar tayyorlash, ta'lif-tarbiya tizimi jamiyatda bo'layotgan islohotlar, yangilanish jarayonlari talablari bilan yetarli darajada bog'lanmagan. Aholi turli toifalarini "Hayot davomida ta'lif olish" prinsipi bo'yicha kasbga tayyorlash tizimining yetarli rivojlanmaganligi aksariyat katta yoshli aholi, shuningdek, ishsiz yoshlar va nogiron shaxslarning mehnat bozorida keraksiz bo'lib qolishiga olib kelmoqda.

TADQIQOT NATIJALARI

Shuningdek, bugungi kunda mamlakatimiz oliy ta'lif tizimida kadrlar tayyorlash tizimining demokratik o'zgarishlar va bozor islohotlari talablariga muvofiq emasligi, o'quv jarayonining moddiy-texnika va axborot bazasi yetarli emasligi, yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlarning yetishmasligi, sifatli o'quv-uslubiy va ilmiy adabiyotlar hamda didaktik materiallarning kamligi, ta'lif tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida samarali o'zaro hamkorlik va o'zaro foydali integrasiyaning yo'qligi kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklar sirasiga kiradi. Yuqorida ta'kidlanganlardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, hozirgi davrda har bir mamlakat raqobatbardoshligi avvalo, uning ta'lif va fan darajasiga bog'liq. Ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida quyidagilar: O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasining 1-ilovasiga muvofiq quyidagilar nazarda tutilgan: oliy ta'lif sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish, hududlarda davlat va nodavlat oliy ta'lif muassasalari faoliyatini tashkil etish asosida oliy ta'lif bilan qamrov darajasini 50 foizdan oshirish, sohada sog'lom raqobat muhitini yaratish; O'zbekiston Milliy Universiteti va Samarqand davlat universitetini mamlakatimiz oliy ta'lif muassasalarining flagmaniga aylantirish; Respublikadagi kamida 10 ta oliy ta'lif muassasasini xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlar (Quacquarelli Symonds World University Rankings, Times Higher Education yoki Academic Ranking of World Universities) reytingining birinchi 1 000

ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga, shu jumladan, O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universitetini birinchi 500 ta o'rindagi oliy ta'lim muassasalari ro'yxatiga kiritish; Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o'tkazish; Xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish, jumladan, o'quv dasturlarida nazariy bilim olishga yo'naltirilgan ta'limdan amaliy ko'nikmalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim tizimiga bosqichmabosqich o'tish; Oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish; Oliy ta'lim muassasalarining akademik mustaqilligini ta'minlash; Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog'liqligini nazarda tutuvchi "Universitet 3.0" konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish; Xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish, pullik xizmatlar ko'lамини kengaytirish va boshqa byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga oliy ta'lim muassasalarida texnopark, forsayt, texnologiyalar transferi, startap, akselerator markazlarini tashkil etish hamda ularni tegishli tarmoq, soha va hududlarning ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishini tadqiq qiluvchi va prognozlashtiruvchi ilmiy-amaliy muassasalar darajasiga olib chiqish; Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilar, ilmiy izlanuvchilar, doktorantlari, bakalavriat va magistratura talabalarining yuqori impakt-faktorga ega nufuzli xalqaro ilmiy jurnallarda maqolalar chop etishi, maqolalarga iqtiboslik ko'rsatkichlari oshishi, shuningdek, respublika ilmiy jurnallarini xalqaro ilmiy-texnik ma'lumotlar bazasiga bosqichma-bosqich kiritilishini ta'minlash; O'zbekiston oliy ta'lim tizimini Markaziy Osiyoda xalqaro ta'lim dasturlarini amalga oshiruvchi "xab"ga aylantirish; oliy ta'limning investitsiyaviy jozibadorligini oshirish, xorijiy ta'lim va ilm-fan texnologiyalarini jalb etish; talaba-yoshlar ta'lim-tarbiyasi uchun qo'shimcha sharoitlar yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni o'z ichiga olgan beshta tashabbusni amaliyotga tatbiq etish; oliy ta'lim muassasalarining infratuzilmasi va moddiy-texnik bazasini, shu jumladan, xalqaro moliya institutlarining imtiyozli mablag'larini keng jalb qilish hisobiga yaxshilash, ularni bosqichma-bosqich o'zini o'zi moliyalashtirish tizimiga o'tkazish va

moliyaviy barqarorligini ta'minlash; ta'limning ishlab chiqarish korxonalari va ilmiytadqiqot institutlari bilan o'zaro manfaatli hamkorligini yo'lga qo'yish; aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlari, shu jumladan, imkoniyati cheklangan shaxslarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasini oshirish, ular uchun infratuzilmaga oid sharoitlarni yaxshilash; O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini 2019-yilda amalga oshirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" 2- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Konsepsiya tegishli davrga mo'ljallangan maqsadli parametrlar va asosiy yo'nalishlardan kelib chiqib, har yili alohida tasdiqlanadigan "Yo'l xaritasi" orqali bosqichma-bosqich amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin. Global o'zgarishlar davrida ta'lim-tarbiyaga extiyoj ortib boradi. Chunki hayot o'zgarish sur'atlari tezlashadi. Bu bir tomondan, turli xalqlar hayot soxalarida imkoniyat doirasida umumiy jihatlarni, qulayliklarni yaratib bersa, ikkinchi tomondan axborot makoni kengayadi. Turli maqsad va manfaatlarga yo'naltirilgan har xil g'oya, qarashlar, uni targ'ibot qilish texnologiyalari ijtimoiy ong va tafakkuriga ta'sir ko'rsatish maqsadida "jozibador"ligini oshirgan xolda samaradorlikka erishish uchun harakat qiladi. Ta'lim-tarbiyaning "sovetcha" modeli o'rnida yangi, ya'ni hozirgi zamonda ta'lim-tarbiya soxasida dunyoda erishilgan yutuqlarga, axborot kommunikasiya tizimi, pedagogik texnologiyalarni joriy etgan xolda ta'limni amalga oshirishga, ta'lim soxasiga yangi innovasiyalarni joriy etishga davlat siyosati darajasida e'tibor berilmokda. Uning yutuqlarini esa dunyo e'tirof etmoqda. Masalan, ta'lim sohasida innovasiyalarni joriy etishga bo'yicha O'zbekiston Respublikasini ikkinchi o'rinni olganligi ham bunga dalildir.

Iqtisodiyot va jamiyat rivojlanishining zamonaviy holati inson faoliyatining kasbiy va kasbiy tayyorgarlik sifati darajasiga har qachongidan ham ko'proq talablar qo'ymoqda. Zamonaviy xodimning ma'lum bir ish faoliyatiga moslik darajasini baholash borasidagi talablar doimiy ravishda o'zgarib va kuchayib bormoqda. Bunda "Kasbiy kompetentlik" sifatida uning nafaqat kasbiy bilimlari, malaka va ko'nikmalari, balki mantiqiy fikrlashi, tashabbuskorligi, uddaburonligi, guruhda ishslash va hamkorlik qilishga bo'lган qobiliyati, ma'lumotliligi va boshqa sifatlari muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zaro mantiqiy izchillik asosida bog‘langan hamda soddadan murakkabga qarab rivojlanib boruvchi va bir-birini taqazo etuvchi bosqichlardan iborat yaxlit ta`lim tizimi. O‘zbekiston Respublikasida ta`lim sohasida davlat siyosatining asosiy tamoyillaridan biri. Uzluksiz ta`lim tizimining faoliyat olib borishi davlat ta`lim standartlari asosida, turli darajalardagi ta`lim dasturlarining izchilligi asosida ta`minlanadi va maktabgacha ta`lim, umumiy o‘rta ta`lim, professional ta’lim, kasb-hunar ta`limi, oily ta`lim, oliy o‘quv yurtidan keying ta`lim, kadrlar malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash, maktabdan tashqari ta`limni o‘z ichiga oladi.O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta`minlovchi, jamiyat va davlatning iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnikaviy va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi ustuvor sohadir. Uzluksiz ta`lim ijodkor ,ijtimoiy faol, ma`naviy shakllanishi va yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlash uchun zarur shartsharoitlar yaratadi. O‘zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta`limni milliy taraqqiyotning o‘ta muhim omili sifatida e’tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyati hurmatlash, ta`lim tarbiyaning uzviy bog‘liqligi bu jarayonni har tomonlama kamol topgan insonni shakllantirishga yo‘lantirilganligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, ularga ta`limning eng yuqori darajasida, izchil ravishda fundamental va maxsus bilim olishlari uchun shart- sharoitlar yaratish. Uzluksiz ta`lim jarayonida samarali natijalarga erishish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Oldimizda ta`lim mazmunini belgilashga xizmat qiluvchi, uzsluksiz ta`lim tizimining me’yoriy hujjatlari, o‘quv dasturlarining uzviyligini tahlil qilish, ularning har bir fan bo‘yicha bosqichlar orasida takroriyligining oldini olish bo‘yicha ishlar hamda uzviyliги ta’minlagan fan dasturlari asosida darsliklar mazmunini ham muvofiqlashtirish kabi dolzarb vazifalar turibdi. Prezidentimiz SH.Mirziyoyev tomonidan Maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligi” hamda “Oliy ta’lim standartlari xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, ta’lim yo‘nalishlari va o‘qitiladigan fanlar qayta ko‘rib chiqilishi zarurligi hamda mutaxassislikka aloqasi bo‘Imagan fanlar sonini ikki barobarga qisqartirish to‘g‘risida” aniq vazifalarni belgilab bergen edi. Ulardan ko‘zda tutilgan maqsad, maktab faoliyatini demokratlashtirish uning, insonparvarlik tamoyillarini

rivojlantirish, shu asosida o‘quv tarbiya ishlari mazmunini, uning shakl va uslubini kompleks yangilash va yanada takomillashtirishdan iboratdir. Yangilangan ta’lim to‘la ma’noda yangicha tafakkur, sog‘lom fikr demakdir. Hozirgi davrda ta’limni qadr-qimmati, obro va nufuziga teng darajada uning ijrochilarida tashabbuskorlik, fidoiylik va ishbilarmonlik ham bo‘lishi kerak. Ta’limdagi mufaqqiyat, aksariyat dadil harakat qiluvchilar tarafida bo‘ladi. Mamlakatimizda pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimi yo‘lga qo‘yilgan . Bu boradagi xalqaro tajriba ham o‘rganilmoqda. Professor-o‘qituvchilarimiz Buyuk Britaniya, Germanya, Avstriya, Italiya, Fransiya, Chexiya, Niderlandiya kabi davlatlarda ta’lim olib, malaka oshirib kelmoqda. Yevropa Ittifoqi komissiyasining “Erasmus”, “Texnik yordam dasturlari” kabi loyihalari oliy ta’lim tizimini modernizatsiyalash, yanada takomillashtirishda qo‘l kelmoqda. Irlandiya ta’lim tizimida yaqin-yaqingacha oliy ta’lim muassasalari pedagoglarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlari ko‘zda tutilmagan edi, deydi Irlandiya O‘qitish hamda ta’lim olishni rivojlantirish milliy forumi direktori Tereza Margaret Magvayyer. Shu bois o‘qituvchilarning malaka oshirish ishlari ixtiyoriy bo‘lib kelgan. O‘zbekistonning pedagog kadrlar malakasini oshirishga davlat tomonidan jiddiy e’tibor qaratilishi, ularning dars jarayonlarida zamonaviy axborot – kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish va xorijiy tillarni o‘rganib borish tajribasidan iborat. Germaniya ta’limi o‘ziga xos murakkab tizimga ega. Germaniya davlatida taraqqiy etgan davlatlar orasidan o‘rin olishda o‘zini oqlab kelayotgan ta’lim tizimi mavjud. Fransiya ta’lim tizimini oladigan bo‘lsak Fransiyada ta’lim sifati ta’lim, sport va tadqiqotlar bo‘yicha bosh inspeksiya tomonidan nazorat qilinadi. Fransiya ta’lim tizimiga ko‘ra bola 6-7 yoshida tayyorlov sinfga boradi, keyin shu maktabda 4-yil boshlang‘ich sinfda o‘qiydi. O‘zbekiston ta’lim tizimi ham deyarli shunday. Shu o‘rinda Shvetsariya ta’lim tizimini ham aytadigan bo‘lsak Oliy ta’lim Shvetsariyada oliy ta’limning eng kuchli jihatni amaliyotga yo‘nalganligidir. Bu yerdagi davlat universitetlari aniq va huquq sohasida o‘qitish bilan mashhur. Ta’limni modernizatsiyalash va samaradorligi haqida so‘z yuritar ekanmiz, unda yana bir muhim omil xalqaro tajribalar o‘zlashtirishni nazarda tutish maqsadga muvofiq albatta. Xalqaro , chet el tajribasi ya’ni ta’limda o‘z yo‘nalishiga va uslubiga ega bo‘lgan davlatlarning

ilg‘or tajribalarini olib kirish hozirda mamlakatimiz davlat siyosati oldida turgan maqsadlardan biri desak mubolag‘a bo‘lmaydi . Binobarin “O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi tizimini 2030–yilgacha rivojlantirish konsepsiysi” ni tasdiqlanishi buning yaqqol isbotidir. Yana bir xalqaro tajribalarni joriy etish doirasida, Koreya davlatining tajribasi olib kirildi, bu tajriba barchaga ma’lum bo‘lgan kredit- modul tizimidir. Ushbu kredit-modul tajribasi Koreya davlatida yaxshi samara bergenligi sababdan ham, bu xalqaro va ilg‘or tajriba ayrim oliy o‘quv yurtlarimizda tashkil etildi .Va o‘quv yurtlarida ta’lim kredit –modul tizimini joriy etish bilanoq, ta’limda sifatni yanada yaxshilanganligini ko‘rish mumkin Darhaqiqat bu kabi o‘z sinovidan o‘tgan va yaxshi samara beradigan xalqaro tajribalar bundan keyin ham o‘zlashtirib boriladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga yo‘llagan Murojaatnomada maktab o‘quv dasturlarini ilg‘or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o‘quv yuklamalari va fanlarni qayta ko‘rib chiqish , ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarurligini takidladi. Ta’lim sohasi tubdan yangilanayotgan O‘zbekistonda ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarda TIMSSva TALIS dasturlarida ishtirok etib, xalqaro reytinglarda yuqori o‘ringa ega davlatlar tajribasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Bu borada Rossiya Federasiyasida ham o‘ziga xos tajriba shakllangan . 2022-yilda O‘zbekiston Xalqaro o‘quvchilarni baholash dasturida (Program for International Student Assessment,PISA) ishtirok etadi.O‘zbekistonni ushbu xalqaro dasturga tayyorgarlik ko‘rishiga Rossiya ta’lim akademiyasining Ta’limni rivojlantirish strategiyalari instituti Ta’lim sifatini baholash markazi ko‘maklashmoqda. Bugungi kunda O‘zbekistonlik yoshlar tomonidan Yaponiyada ta’lim olishga qiziqish katta va yapon tilini mamlakatimiz yigit-qizlari qiziqib o‘rganmoqda. Mamlakatimizda hozirgi kunda oltita oliy o‘quv yurti ta’lim dasturlariga yapon tilini o‘rganish kiritilgan.SHuningdek, Yaponiya xalqaro hamkorlik tashkiloti (JICA)ning yordami bilan bir qator oliy o‘quv yurtlarida yapon tilini o‘rganish markazlari ochilgan. Bundan tashqari Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida ikki mamlakatning ta`lim va madaniyat sohasidagi aloqalarini yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladigan, Markaziy Osiyo mintaqasida yagona bo`lgan Yaponiya tadqiqotlari tahlil markazining ochilish marosimi o‘tkazildi. Yaponiya

bizning strategik hamkorimizdir va Yaponiya bilan mamlakatimizda iqtisodiyot tarmoqlari hamda infratuzilmalarni modernizatsiya qilish bo'yicha ko'p ishlar qilinib kelinmoqda. Jahondagi ko'plab rivojlanayotgan davlatlar Yaponiya iqtisodiyoti tajribasini, uning bosib o'tgan yo'llarini tahlil qilgan holda o'z mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanishida qo'llay olgan. Jumladan, Janubiy Koreya, Malayziya, Indoneziya, Filippin, Tavyan kabi mamlakatlarda olib borilgan iqtisodiy islohotlarda aynan Yaponiya tajribasining ko'plab jihatlaridan unumli foydalanilgan. Shuning uchun ham Yaponiya iqtisodiyotini hamda rivojlanish modelini tahlil qilgan holda uning ba'zi bir jihatlarini O'zbekistonda ham qo'llash manfaatli bo'ladi. Shu tufayli ikki mamlakat o'rtasida o'zaro manfaatli aloqalarni yo'lga qo'yilishi juda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro miqyosda o'quvchilarni baholash dasturi reytengi bo'yicha jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamlakati qatoriga kirishishiga erishish yana bir ustuvor maqsaddir. Universitet (olmoncha Universität so'zidan, esa o'z navbatida lotincha universitas magistrorum et scholarium — «o'qituvchilar va olimlar jamoati» iborasidan kelib chiqqan) fundamental va amaliy fanlar o'qitilib, mutaxassislar tayyorlanadigan oliy ta'lim muassasasidir. Odatda, ilmiy-tadqiqot ishlarini ham olib boradi. Bugungi kundagi universitetlarning aksariyati o'quv-ilmiy-amaliy majmualar sifatida faoliyat yuritishadi. Universitetlar o'z tarkiblariga bir necha fakultettlarni oladi. Universitet (lot. universitas — yig'indi, majmua) — tabiy, ijtimoiy va gumanitar yo'nalishda yuksak malakali mutaxassislar tayyorlashga yo'naltirilgan kop tarmoqli, oliy o'quv-ilmiy muassasa. U o'z bitiruvchilarining kelajakdag'i ilmu-amaliy va pedagogik faoliyatları uchun chuqr nazariy tayyorgarlik kurishlarini ta'minlaydi. O'quv va ilmiy tadqiqot ishlarining uzviy ravishda qo'shib olib borilishi uchun katta hissa qo'shadi. Va ta'limning asosiy o'ziga xos jihatidir. U musulmon Sharqidagi oliy (Madrasa) yoki madrasai oliya (qarang (Madrasa) makrmiga to'g'ri keladi. Yaqin Sharq mamlakatlarida dorilfunun deb ataladi. O'rta asrlar Yevropasida dastlab turli sherikchilik birlashmalari, savdogarlar gildiyalari, sanoat-tijorat sexlari va boshqa shirkatlar Universitet deb yuritilgan. Yevropada Universitetning yuzaga kelishi muayyan iqtisodiy taraqqiyotga erishilganligi, shaharlarning ko'payishi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, madaniyatning yuksalishi, shuningdek, ilmfanning taraqqiy etib, turli falsafiy oqimlarning paydo

bo‘lishi bilan bog‘liq. Shuning uchun ham ilk Universitetlar iqtisodiy jihatdan rivojlangan Italiya, Ispaniya, Fransiya singari G‘arbiy Yevropa mamlakatlarida tashkil topdi. Dastlabki Universitetlar Italiyaning Bolonya (11-asr), Salerno (12-asr oxirlari), Fransiyaning Parij (1215), Monpelye (1289), Bukj Britaniyaning Kembrij (1209), Oksford (1096), Ispaniyaning Salamanka (1218), Portugaliyaning Lissabon (1290) shaharlarida paydo bo‘ldi. 14-asrga kelib Markaziy Yevropada ham bir nechta Universitetlar ochildi. Universitet va ilmfan taraqqiyoti tufayli 1348 i. Praga, 1364-yil Krakov, 1365 i. Vena Universitetlari yuzaga keldi. O‘rtaslardagi Universitetlarda, odatda, artistlik (tayyorlov), ilohiyot, tibbiyot, huquq singari 4-ta fakultet bo‘lgan. Artistlik fakulteti hamma uchun majburiy bo‘lib, unda ritsarlar uchun zarur "etti erkin san’at" o‘rgatilgan. Artistlik fakultetining grammatika, ritorika, dialektika asoslarini o‘rgangan talabasiga san’at bakalavri darajasi berilgan. Fakultetning falsafa, arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa nazariyasining to‘liq kursini o‘zlashtirgan talaba san’at magistri darajasiga erishgan va u qolgan 3 fakultetdan biriga kirib o‘qish xuquqini qo‘lga kiritgan. Dastlabki Universitetlarda xuddi madrasalardagi kabi o‘qish muddati ham, talabalarning yosh chegarasi ham belgilab qo‘yilmagan. Amalda Universitetda o‘qish 12—14 yoshga qadar davom etgan. Chet ellardagi hozirgi Universitetlar tashkiliy tuzilishiga kura, mustaqil fakultet, institut, maktab va kollejlarning o‘ziga xos birlashmasidan iborat dunyoning ko‘p Universitetlarida ilmiy tadqiqotchilar bilan birga o‘rtasda maktab o‘qituvchilari ham tayyorlanadi. Odatda, aksar zamonaviy Universitetlarda tabiiyot, tibbiyot, huquq, filologiya, falsafa, iqtisod, muhandislik, ayrimlarida ilohiyot ftlari mavjud. Dunyoda Universitet ta’limining Buyuk Britaniya, Fransiya va Ispaniya tizimlari keng yoyilgan. Jumladan, Buyuk Britaniyada Universitet ta’limi har biri 2 yil davom etadigan 3 bosqichdan iborat. 1bosqich oraliq bosqich deb ataladi va unda asosan umumta’lim fanlar o‘rganiladi. 2bosqich mutaxassislik bosqichi deyiladi va talabaning bakalavr darajasini olishi bilan tugallanadi. 3bosqich yuqori bosqich deb nomlanadi va bitiruvchi magistr darajasiga erishadi. Fransiyada Universitet ta’lim tizimi doimiy bosqichlarga ajratilmagan. Bu yerda kaysi kasbni egallashiga qarab, talaba 4 yildan 7 yilgacha o‘qiydi. Ispaniya Universitet ta’lim tizimi ham Fransiya Universitet ta’lim tizimiga

yaqin keladi. Turkistonda Universitet, ya’ni madrasai oliya 10-asrdayoq yuzaga kelgan bo‘lsada, zamonaviy ma’nodagi dastlabki Universitet Toshkentda 1918-yil 21 aprelda Turkiston xalq universiteti nomi bilan ochilgan. Ammo bu U. rus va yevropalik aholi uchun mo‘ljallangan edi. Oradan 20 kun o‘tib, o‘zbek jadidlari tashabbusi bilan 1918-yil 12 mayda Munavvarqori Abdurashidxonov rahbarligida "Turkiston musulmon xalq dorilfununi" tashkil etildi (qarang O‘zbekiston milliy universiteti). O‘zbekistonda ikkinchi Universitet 1933-yil Samarqand shahrida ochilgan (qarang Samarqand universiteti). 1976-yilda Qoraqalpog‘iston universiteti tashkil etildi. O‘zbekiston mustaqillikka erishgunga kadar mamlakatimizda 3 Universitet. faoliyat ko‘rsatgan. 2002-yil O‘zbekistonda 20 Universitet bo‘lib, ularda 113,7 ming talaba ta’lim oldi. Respublikadagi kup Universitetlar maktab, akademiklitsey va kasbhunar kollejlari singari tuzilmalarni ham o‘z ichiga oladi. 2. U. (O‘zbekiston milliy universiteti va Toshkent texnika universiteti) o‘z institutlariga ham ega Yevropa oliv ta’lim maydoni (EPO) (eng. European Higher Education Area (EHEA)) — Boloniya jarayonida ishtirok etadigan barcha mamlakatlarning oliv ta’lim sohasidagi yagona Evropa ta’lim maydoni. U 2010-yil mart oyida Yevropa ta’lim vazirlarining Budapesht-Vena konferensiysi chog‘ida tashkil etilgan. Boloniya jarayoni — bu oliv ta’lim malakalarining standartlari va sifati bo‘yicha solishtirishni ta’minalash uchun Yevropa mamlakatlari o‘rtasidagi vazirlar uchrashuvlari va kelishuvlari seriyasidir. 1999-yilda EHEA tomonidan tashkil etilganidan buyon Boloniya jarayonining asosiy maqsadi, Evropada oliv ta’lim tizimlarining yaqinlashuvi, uyg‘unligi va ketma-ketligini uyg‘unlashtirish bo‘ldi. 1999-2010 o‘rtasida, Boloniya jarayoni a’zolari barcha sa’y-harakatlari Boloniya jarayonining o‘n yilligi bilan bir vaqtning o‘zida, 2010-yili mart otida Budapesht-Vena konferentsiyasida deklaratsiya imzolangandan so‘ng haqiqatga aylangan Yevropa oliv ta’lim hududini yaratishga qaratilgan edi. Ko‘p jihatdan, Boloniya jarayoni Evropa oliv ta’lim sohasida inqilobiy aylandi. Uning boshlanishi 1970-larning o‘rtalariga to‘g‘ri keladi, Evropa Ittifoqi Vazirlar Kengashi ta’lim sohasidagi hamkorlikning birinchi dasturi to‘g‘risida qaror qabul qilingan. So‘ngra 1998-yilda Parij Sorbonna universitetining 800-yilligini nishonlash marosimida qatnashgan to‘rt nafar ta’lim vazirlari Yevropa oliv ta’limini Yevropada

segmentatsiyalash fan va ta'lim rivojlanishiga to'sqinlik qilishiga rozi bo'lishdi. Ular Sorbonna deklaratsiyasini imzoladilar (Ingliz Sorbonna qo'shma deklaratsiyasi, 1998). Evropa oliv ta'lim hududini (EHEA) yaratishning ixtiyoriy jarayonida ishtirok etish to'g'risidagi qaror bir yil o'tgach, Boloniyada 29 ta mamlakat vakillari tomonidan rasmiylashtirildi (Boloniya deklaratsiyasi, 1999). Bugungi kunda bu noyob bitim ekanligi Ravshan, chunki bugungi kunda bu jarayon 49 mamlakatlaridan 47 ishtirokchi davlatlarini o'z ichiga oladi, ular Evropa kengashi (1954) Evropa madaniy konventsiyasini ratifikatsiya qildi. Sorbonne deklaratsiyasining maqsadlari 1999-yilda Boloniya deklaratsiyasini^[1] imzolashda tasdiqlangan bo'lib, u oliv ta'limning Evropa makonining raqobatbardoshligini oshirishga chaqirdi va barcha oliv o'quv yurtlarining mustaqilligini saqlab qolish zarurligini ta'kidladi. Boloniya deklaratsiyasining barcha qoidalari qat'iy huquqiy majburiyatlar sifatida emas, balki ixtiyoriy muzokaralar jarayonining choralar sifatida belgilangan. Boloniya deklaratsiyasi doirasida Vazirlar konferentsiyalari ikki yilda bir marta o'tkaziladi, Vazirlar o'z xohish-irodasini bayonot orqali ifoda etadilar. "Yevropa Ittifoqi ilg'or ta'lim va tadqiqot markazi sifatida mashhur. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida dunyoning yetakchi universitatlari joylashgan, bu uni global oliv ta'lim bozorida muhim ishtirokchiga aylantiradi, u o'zbekistonlik talabalarni quchoq ochib kutib oladi. O'zbekistonning yanada gullab-yashnashi uning iqtidorli yoshlariga bog'liq. Ta'lim shaxsiyat rivojlanishi uchun muhim poydevorni tashkil qiladi. Yevropa Ittifoqi universitetlarida olingan oliv ta'lim global bilim va ko'nikmalarni yaratadi, ular bitiruvchilar o'z vatanlariga qaytganlaridan so'ng, butun mamlakat taraqqiyotiga albatta hissa qo'shadilar", - deya, e'tirof etdi Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi elchisi Sharlotta Adrian. Yevropa Ittifoqining bir qancha mamlakatlari, jumladan Belgiya, Bolgariya, Chexiya, Fransiya, Germaniya, Ruminiya va Ispaniya o'zlarining balakavriat, magistratura va aspirantura dasturlarini taqdim etadilar. Fransiya (Campus France), Chexiya (DZS) va Germaniya (DAAD) milliy agentliklari o'z mamlakatlarida ta'lim olishning keng imkoniyatlarini namoyish etadilar. Tadbirda o'zlarining akademik yutuqlari bilan mashhur Buxarest universiteti va Berlin Erkin universiteti kabi muassasalar qatnashadi. Ko'rgazma tufayli yuqori sinflar o'quvchilari va universitetlar talabalari Yevropa Ittifoqining ilg'or ta'lim imkoniyatlari haqida

ko‘proq xabardor bo‘lish imkonini qo‘lga kiritadilar. Erasmus+ning 2024 yil uchun navbatdagi arizalar qabul qilishi arafasida Yevropa Ittifoqi va mahalliy universitetlar Erasmus+ loyihalari doirasida institutsional hamkorlikni o‘rganadilar. Erasmus+ individual stipendiyalari, shuningdek Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlar milliy stipendiyalari to‘g‘risidagi axborot yoshlar e’tiborini jalb qiladi. Yevropa jamoasi (Team Europe) ko‘magida o‘tkaziladigan Yevropa Ittifoqi ta’lim ko‘rgazmasi butun umr davomida ta’lim olishga alohida e’tibor berib, “Yevropa ko‘nikmalar yili”ning g‘oyalarini aks ettiradi. Bundan tashqari, u O‘zbekistonda ko‘nikmalar rivojlanishi va yuqori sifatli ta’limga ko‘maklashishga umumiy sadoqatning ramzi bo‘lmish “Insonga e’tibor va sifatli ta’lim yili” bilan uyg‘unlashadi. Tadbir hamtashkilotchilari Yevropa Ittifoqiga a’zo davlatlardir.

MUHOKAMA

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta`lim-tarbiya ishlarining yo’lga qo‘yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o‘rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta`lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta`lim-tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o‘z dolzarbligini yuqotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq halos bo‘lish, uni munosib tarzda yangilashda qo’shimcha boy manbalarga xam ega bo’lamiz. Zotan, xozirgi zamon ta`limida davlat va jamiyat talabi hamda manfaatlari aks etib turishi kerak. Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqqiyatli faoliyat ko‘rsata oladigan jamiyat a‘zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo’naltirish hamda o’rta ta`limning ko‘p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta`lim-tarbiya berishda eng ilg’or pedagogik vositalarni qo’llash, ta`limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo’l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi jahon tajribalarini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda keng ko’lamdagи isloxtlarni uz boshidan kechirayotgan bizning ta`limimiz uchun bu katta ahamiyatga ega. Keyingi yillarda jahon ta`limi bo‘yicha ko‘pgina maqolalar, broshyuralar, qo’llanmalar chop etildi, unga bag’ishlab seminarlar, anjumanlar, o‘qishlar, uchrashuvlar o‘tkazildi. Bu bizning ta`lim tizimimizda, chet

ellarda o'quv-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishiga e'tibor va qiziqishning tez sur'atlar bilan o'sib borayotganligidan dalolatdir.

XULOSA

Xalq ta'limi tizimlarida jahon ta'lim tizimini o'rganish bilan shug'llanuvchi muassasalar xam tashkil topmoqda. Jahon ta'limi tizimlaridan bizning mutaxassislarni voqif qilishda BMTning O'zbekistondagi vakolatxonasi, elchixonalar, AQSHning Tinchlik Korpusi mutaxassislari, Germaniya xalqaro rivojlanish fondi, AKSELS markazi, Adenauer jamg'armasi, Fransiya madaniyat markazi, Britaniya Kengashi, Gyote instituti, YuNESKO va YuNISEFning vakolatxonalari va boshqa ko'plab tashkilotlar yaqindan yordam bermoqdalar. Darhaqiqat, rivojlangan xorijiy davlatlarda ta`limning, mamlakat ichki siyosatiga faol ta`sir etadigan ijtimoiy jarayon ekanligi, e`tirof qilingan haqiqatdir. Shu tufayli ham chet mamlakatlarida maktab ehtiyojini iqtisodiy ta`minlashga ajratilayotgan mablag` miqdori yildan-yilga oshib bormoqda. Rivojlangan mamlakatlarda pedagogik tadqiqotlarni amalga oshiradigan ko'p sonli ilmiy muassasalar ishlab turibdi. Shuni ta`kidlash lozimki, iqtisodiy rivojlangan davlatlarda 80- yillarda tabiiy ilmiy ta`lim dasturi tarkibiga fizika, kimyo, biologiya, ba`zi hollarda astranomiya, geologaya, mineralogiya, fiziologiya, ekologiya elementlari kiritilib, u AQSh va Fransiyada 4 yil, Buyuk Britaniyada 6 yil, Germaniyada 2 yil o'qitiladi. O'quv predmetlarini integratsiyalash jarayonida yangi-yangi kurslar paydo bo'la boshladi. Fransiyada 70-80-yillarda to'liqsiz o'rta maktablar o'quv dasturidagi tabiiy-ilmiy va gumanitar turkumiga eksperimental, iqtisodiy gumanitar kurslar kiritiladi. Xozirgi paytlarda rivojlangan mamlakatlar o'kuv dasturiga integratsiyalashtirilgan kurslarni kiritish to'la amalga oshirishdi. Maktablarda amalga oshirilayotgan islohotlar ta`lim ishini tabaqlashtirish muammolarini keltirib chiqardi. Iqtisodiy rivojlangan xorijiy mamlakatlarda ta`limni tabaqlashtirish eng dolzARB masalaga aylangan. Ta`lim oluvchilarni tabaqlashtirib o'qitish xorijiy mamlakatlarda asosan boshlang'ich ta`lim kursidan keyin amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- 1.Xoliqov A. Pedagogik mahorat. -T.: Iqtisod-moliya nashriyoti, 2011.- 420 b.
- 2.Azizzodjaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. -T.: O‘zbekiston yozuvchilar uyushmasi, 2006.-159 b.
- 3.Mirziyoyev Sh. M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma’ruza. 2016 yil 7 dekabr /Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017. – 48 b.

Elektron ta’lim resurslari

1. www.tdpu.uz
2. www.pedagog.uz
3. www.Ziyonet.uz
4. www.edu.uz